

“Mustaqillik kubogi”: voleybol musobaqasi g'oliblari aniqlandi

// 18.08.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mustaqillik-kubogi-voleybol-musobaqasi-g-oliblari-aniqlandi>



O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “O'zkimyosanoat” AJ tizimidagi korxonalar xodimlari o'rtasida tashkil etilayotgan “Mustaqillik kubogi” sport musobaqalari qizg'in davom etmoqda.



Bugun musobaqa doirasida erkaklar o'rtasidagi **voleybol bahslari** o'z yakuniga yetdi. Unda tarmoq korxonalaridan shakllantirilgan **8 ta jamoa** g'oliblik uchun o'zaro kuch sinashdi.

Musobaqaning asosiy maqsadi — xodimlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, sportga qiziqishni oshirish, jamoaviy ruh va hamjihatlikni mustahkamlash, shuningdek, do'stona munosabatlarni rivojlantirish.



Musobaqa yakunlari:

- 1-o'rin — "Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ jamoasi
- 2-o'rin — "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ jamoasi
- 3-o'rin — "Maxam-Chirchiq" AJ jamoasi



G'olib jamoalarni muborakbod etib, kelgusi musobaqalarda ham yuqori natijalar tilaymiz!

